# FARG‘ONA VILOYATI QUVASOY SHAHAR HOKIMI
# Q A R O R I

2022 - yil 10 - yanvar 9-11-167-Q/22 Quvasoy shahar hokimligi

**Yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-apreldagi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-348-sonli *(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 15-son, 197-modda; 2015-y., 52-son, 645-modda)* qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 24-dekabrdagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 370-sonli *(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 3-son, 23-modda; 2017-y., 36-son, 958-modda)* qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, Quvasoy shahar YFUK direktori I.Karimovning 2021-yil 26-noyabr kungi 4R-204 “Farg‘ona halqasi-Sufon” avtomobil yo‘lining PK 185+00 dan PK 187+00 oralig‘ida 3.27 “To‘xtash taqiqlanadi” yo‘l belgisini o‘rnatish to‘g‘risidagi №241-sonli aloqa xati hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 25-moddalariga asosan,

**QAROR QILAMAN:**

1. Quvasoy shahar YFUK direktori I.Karimovning 2021-yil 26-noyabr kungi 4R-204 “Farg‘ona xalqasi-Sufon” avtomobil yo‘lining PK 185+00 dan PK 187+00 oralig‘ida 3.27 “To‘xtash taqiqlanadi” yo‘l belgisini o‘rnatish to‘g‘risidagi №241-sonli aloqa xati qanoatlantirilsin.

2. 4R-204 “Farg‘ona halqasi-Sufon” avtomobil yo‘lining PK 185+00 dan PK 187+00 oralig‘ida yo‘l harakati ishtirokchilarini harakatlanishini tartibga solish maqsadida 3.27 “To‘xtash taqiqlanadi” yo‘l belgisi o‘rnatilsin.

3. “Quvasoy yo‘llardan foydalanish” unitar korxonasi (Karimov)ga ushbu yo‘l belgilarini o‘rnatish chorasini ko‘rsin.

4. Quvasoy shahar IIB YHXG (Xamrayev)ga transport vositalari va piyodalarning xavfsiz harakatlanishi uchun ushbu yo‘l belgilariga rioya qilinishini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

5. Shahar hokimligi Axborot xizmati (Z.Abdullajonov), “Isfayram” ro‘znomasi muxarriri (O‘.Karimova) shahar hokimligining “Isfayram” gazetasida nashr etilishini va shahar

hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilishini taminlansin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Tursunbayev zimmasiga yuklatilsin.

7. Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**shahar hokimi** **To‘rakulov Z. K.**